Аннотация: В данной статье рассматривается зарубежный опыт повышения экономической эффективности производства строительных материалов. Автором проведён анализ стратегий, механизмов и экономических инструментов, применяемых в развитых странах (США, Германия, Япония) и в ведущих развивающихся экономиках (Китай, Турция). Особое внимание уделено возможностям адаптации данных практик к условиям местной промышленности строительных материалов. Статья обосновывает необходимость внедрения международных подходов для повышения эффективности в строительной отрасли.

Ключевые слова: строительная промышленность, экономическая эффективность, передача технологий, модель циркулярной экономики, производственная результативность.

KIRISH

Zamonaviy globallashtirilgan jahon iqtisodiyoti sharoitida qurilish materiallari sanoati jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish ushbu sohada ustuvor maqsadlardan biri bo'lib, bu resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etishni talab etadi. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan va yetakchi rivojlanayotgan mamlakatlari — xususan, AQSh, Germaniya, Yaponiya, shuningdek, Xitoy va Turkiya — qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilg'or yondashuvlarni qo'llamoqdalar. Ushbu



maqolada qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan xorijiy tajribalardagi samarali strategiyalar, iqtisodiy mexanizmlar va moliyaviy dastaklar tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning O'zbekiston qurilish materiallari sanoatida qo'llash imkoniyatlari baholanadi. Tahlil davomida yuqorida tilga olingan davlatlarning ilg'or tajribasi mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda o'rganiladi va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari sanoati korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirishning AQSh tajribasi mahsulot ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llashga asoslangan. AQShda qurilish materiallari sanoati yuqori darajada avtomatlashtirilgan bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtirish va samaradorlikni oshirishga katta e'tibor qaratiladi. Shu sababli mamlakatda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda quyidagi ilg'or texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonida keng qo'llanadi:

3D chop etish texnologiyasidan foydalanish [32]. Ushbu texnologiya beton va g'isht mahsulotlarini ishlab chiqarishda mahsulotlar tannarxini kamaytirish imkonini beradi.

IoT (Buyumlar Interneti) texnologiyalarining joriy qilinishi [18]. Ushbu texnologiya real vaqt rejimida qurilish materiallari ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish va nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. AQShda ishlab chiqaruvchilarning qariyb 35 foizi ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash uchun aqlli sensorlardan ma'lumotlarni to'playdi va ulardan foydalanadi [47].

Yuqori samarali energiya tejovchi pechlar [48]. Ushbu samarali pechlar sement va g'isht ishlab chiqarishda yoqilg'i sarfini kamaytirishga imkon beradi.

Mazkur texnologiyalar qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining mahsulot tannarxini pasaytirish va iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuv va tijoratlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish AQShda qurilish materiallari sanoati iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi. AQSh qurilish materiallari ishlab chiqarishda texnologiyalarni tijoratlashtirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha ilg'or tajribaga ega. Sement va beton mahsulotlari ishlab chiqarishda nanomateriallar qo'llanilib, materiallar mustahkamligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish maqsad qilinadi [19]. AQShda "yashil" qurilish materiallarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish ommalashmoqda. AQSh yashil qurilish materiallari bozorining hajmi 2022-yilda 88,2 milliard AQSh dollariga teng bo'ldi va 2030-yilgacha bo'lgan davrda yillik o'rtacha o'sish sur'ati 12,7 foizni tashkil qilishi kutilmoqda [41]. Bu mahsulotlar energetik samaradorlikni oshiradi va atrof-muhitga ta'sirni kamaytiradi.

Qurilish materiallari sanoati korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirish Germaniya tajribasida atrof-muhitni muhofaza qilish va energiya samaradorligi ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Germaniya qurilish materiallari ishlab chiqarishda ekologik toza va energiya tejamkor usullarni keng qo'llab kelmoqda. Shu sababli Germaniya qurilish materiallari ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Germaniyada qurilish materiallari sanoati korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Qayta ishlangan xomashyolardan foydalanish tamoyili — eski beton, g'isht va yog'och qoldiqlarini qayta ishlab, ulardan yangi mahsulot ishlab chiqarishda foydalanish [25]. Germaniya chiqindilarning 98,9 foizini qayta ishlagan holda bu borada jahonda birinchi o'rinda turadi [31].

Uglerod neytralligi tamoyili — sanoatda chiqindilarni kamaytirish va uglerod izini minimallashtirish. Germaniyada 2021-yilda sement ishlab chiqarishda foydalanilgan issiqlik energiyasining 70 foizi muqobil energiya manbalaridan olingan [7].

Passiv uy texnologiyasi tamoyili — issiqlik izolyatsiyasi salohiyati yuqori bo'lgan uylar va qurilish materiallari ishlab chiqarish orqali energiya samaradorligini ta'minlash [21].

Energiya samaradorligi tamoyili — Germaniya hukumati qurilish materiallari sanoatida energiya sarfini kamaytirish uchun ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilishni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, sement ishlab chiqarishda CO₂ emissiyasini kamaytirish uchun yangi texnologiyalar joriy qilingan [45].

Ushbu tamoyillar Germaniyada qurilish materiallari sanoatini ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror qilishga imkon beradi, mahsulot tannarxini kamaytirish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiya, monografik tahlil, analiz va sintez, ilmiy mushohada, shuningdek jadval va grafik (rasm) usullaridan foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Germaniyaning qurilish materiallari ishlab chiqarishda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish tajribasidan Jizzax viloyatida foydalanishda bir qator usullar mos kelishi mumkin. Jumladan, chiqindilarni qayta ishlash orqali qurilish chiqindilaridan yangi materiallar ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Jizzax viloyatida sovuq qish va issiq yoz iqlimi hukm surishi bois, yaxshi issiqlik izolatsiyasiga ehtiyoj yuqori. Ushbu ehtiyojni passiv uy texnologiyalarini rivojlantirish orqali qondirish mumkin. Shuningdek, uglerod neytralligi dasturlarini amalga oshirish orqali qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik me'yorlarni joriy etish imkoniyati mavjud. Jizzax viloyatida sement, g'isht va boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'i rivojlanganligi bois, qayta ishlangan xomashyo va energiya samaradorligi bo'yicha dasturlar mazkur mahalliy sanoat tarmog'ini ekologik jihatdan yanada barqaror qilish imkonini beradi.

Yaponiya sanoati, jumladan qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasi, yuqori sifat, kam xarajat, barqaror takomillashuv va xodimlarning faol ishtiroki kabi tamoyillar asosida shakllangan. Yaponiya sanoati iqtisodiy samaradorlikni "Kaizen" va "Umumiy sifat menejmenti" (Total Quality Management) kabi boshqaruv yondashuvlariga asoslangan holda ta'minlab, global raqobatda yetakchilik qilmoqda. Yaponiyaning qurilish materiallari sanoatidagi yuqori samaradorligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi: mahsulot sifati va chidamliligi bo'yicha xalqaro tan olingan standartlarga egaligi; korxonalarda energiyani tejash va chiqindilarni minimallashtirish bo'yicha qat'iy tizim joriy etilganligi; ishchilarning doimiy malaka oshirish tizimi ishlab chiqilganligi; mahalliy hamda global bozorlarda talab yuqori bo'lgan qurilish mahsulotlarini (prefabrik modullar, issiqlik izolyatsiyalovchi materiallar va boshqalar) ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi [14].

Kaizen yondashuvi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi: ishchi xodimlarning faol ishtiroki — har bir xodim yaxshilanish jarayonining ishtirokchisi bo'lishi zarur; doimiy monitoring va tahlil — jarayonlar, mahsulot va xizmatlar holatini uzluksiz baholash; kichik, lekin muntazam o'zgarishlar — yirik islohotlardan ko'ra, doimiy va kichik yangilanishlarga ustuvorlik berish; resurslarni tejash va chiqindilarni kamaytirish — qurilish materiallari ishlab chiqarishda xomashyoni ortiqcha sarf qilishning oldini olish [36].

Umumiy sifat menejmenti yondashuvi esa Kaizen konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yanada murakkab, tizimli va strategik yondashuvdir. Uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat [8]: mijozga yo'naltirilganlik — ichki va tashqi mijozlarning ehtiyojlarini chuqur o'rganish va ularga moslashish; jarayonlarni boshqarish — har bir jarayon samaradorligini baholab, uni optimallashtirish; sifatni o'lchash — ishlab chiqarishning har bir bosqichida sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish va oshirish; rahbariyat yetakchiligi — rahbariyat tomonidan sifat tamoyillarini qo'llab-quvvatlash; xodimlarni jalb qilish — har bir xodimni sifatni oshirishga mas'ul deb hisoblash; uzluksiz takomillashtirish — doimiy rivojlanishni maqsad qilish.

Yaponiyada qurilish materiallarini ishlab chiqarishda yuqori sifatni ta'minlashga quyidagilar orqali erishilmoqda: texnologik integratsiya [26]; sement va beton ishlab chiqarishda yuqori zichlikka ega bo'lgan materiallardan foydalanish [28]; ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish va optimallashtirish uchun robototexnika va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish [24].

Yaponiyaning Kaizen va umumiy sifat menejmenti yondashuvlari Jizzax viloyatidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari uchun mos va samarali model hisoblanadi. Ushbu tizimlarni joriy qilish orqali viloyat qurilish materiallari sanoatida mahsulot sifati oshadi, ishlab chiqarish tannarxi kamayadi, xodimlar malakasi ortadi va eksport salohiyati kuchayadi. (1-jadval)

1-jadval. Jizzax viloyatida qurilish materiallari korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirishda Yaponiya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari¹.

Yo'nalish	Kaizen bo'yicha	Sifat menejmenti bo'yicha
Ishlab chiqarish liniyalari	Doimiy monitoring va kichik takomillashtirishlarni joriy etish	Har bir texnologik jarayonni standartlashtirish
Xodimlar boshqaruvi	Ishchilarning takliflar berish tizimini yo'lga qo'yish	Har bir xodimga sifat uchun shaxsiy mas'uliyat yuklash
Mahsulot sifati	Ishlab chiqarishdagi xatoliklarni oldindan aniqlash	Sifatni o'lchovli ko'rsatkichlar orqali baholash
Bozor raqobatbardoshligi	Arzon, biroq sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish	ISO kabi xalqaro sifat sertifikatlarini qo'lga kiritish

1 Tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.



Fikrimizcha, Yaponiyaning qurilish materiallari korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan Kaizen va sifat menejmenti yondashuvlaridan Jizzax viloyatida foydalanish quyidagi 1-jadvalda keltirilgan yo'nalishlar asosida joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirishning Janubiy Koreya tajribasi ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, avtomatlashtirish va innovatsion hamkorlik loyihalarini amalga oshirishga asoslangan. Janubiy Koreya qurilish materiallari sanoatida sun'iy intellekt (AI) va Big Data tahlillaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu sektorga jalb etilayotgan innovatsiyalar resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi quyidagi texnologiyalarga yo'naltirilgan:

AI asosida ishlaydigan ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish [23];

Blokcheyn texnologiyalarini joriy qilish [20];

Robot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish [22].

Zamonaviy raqamli texnologiyalar Janubiy Koreyada butun ishlab chiqarish jarayonining aqlli tizimlar asosida boshqarilishini nazarda tutuvchi "Smart Factory" konsepsiyasini amalga oshirishga imkon bermoqda [30]. Ushbu konsepsiyaning asosiy elementi — sun'iy intellekt texnologiyalari bo'lib, ular ishlab chiqarish samaradorligi va aniqligini oshiradi, ehtimoliy nosozliklarni oldindan aniqlashga xizmat qiladi. Blokcheyn texnologiyalari esa mahsulot sifatini kuzatish va yetkazib berish zanjirlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Janubiy Koreyada hukumat sanoatning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida startaplar, universitetlar va yirik kompaniyalarni birlashtirgan innovatsion hamkorlik dasturlarini amalga oshirgan [35].

Shu nuqtayi nazardan, Jizzax viloyatida raqamlashtirish texnologiyalaridan keng foydalanish ishlab chiqarish jarayoni va logistika tizimlarini takomillashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Masalan:

Sun'iy intellekt — ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, ishlab chiqarish sur'atlarini oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Blokcheyn — qurilish materiallari sifati va yetkazib berish jarayonlarida shaffoflikni ta'minlaydi.

Robot texnologiyalari — Jizzax viloyatida qurilish bloklari, panellar va beton mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida jarayonlarni avtomatlashtirish va jadallashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu mamlakat tajribasidan Jizzax viloyati qurilish materiallari korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish amaliyotida foydalanish yo'nalishlari, mexanizmlari va imkoniyatlarini 2-jadval orqali ifodalash mumkin.

2-jadval. Jizzax viloyatida qurilish materiallari korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirishda Janubiy Koreya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari².

Yo'nalish	Mexanizm	Imkoniyat
Raqamlashtirish	IoT, QR tizimi, ERP	Xomashyo harakati va mahsulot sifatini real vaqt rejimida nazorat qilish
Avtomatlashtirish	Robotlar, sun'iy intellekt asosidagi uskunalar	G'isht, sement ishlab chiqarishda inson ishtirokini kamaytirish
"Smart zavod" konsepsiyasi	AI, Big Data, blokcheyn texnologiyalari	Eksperimental "aqlli" ishlab chiqarish liniyalarini joriy etish
Innovatsion hamkorlik	Davlat — startap — korxona hamkorlik modeli	Jizzax EIZ (erkin iqtisodiy zona) negizida innovatsion klasterlar tashkil etish

Janubiy Koreyaning raqamli texnologiyalar, robotlashtirish va innovatsion hamkorlikka asoslangan tajribasidan Jizzax viloyati qurilish materiallari sanoatida foydalanish — ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va mahsulot sifatini oshirish, shuningdek, yuqori daromadli eksport salohiyatini shakllantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Xitoy bugungi kunda dunyodagi eng yirik qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi mamlakat hisoblanadi [42]. Jumladan, sement, po'lat, g'isht va beton mahsulotlari bo'yicha global miqyosda yetakchi ishlab chiqaruvchi sifatida tan olingan [38]. Masalan, 2022-yilda jahonda ishlab chiqarilgan umumiy sement mahsulotining 51,6 foizi aynan Xitoy hissasiga to'g'ri kelgan [7]. Ushbu natijalarning asosi sifatida texnologik modernizatsiya, me'yoriy-huquqiy islohotlar, ekologik yondashuvlar va davlat siyosatining uzviy integratsiyasi alohida ta'kidlash lozim.

Xitoy tajribasining asosiy yo'nalishlaridan biri — katta hajmdagi investitsiyalar jalb etish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish hisoblanadi. So'nggi 20 yillikda minglab eskirgan korxonalar yopilib

² Tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.



[9], ularning o'rniga zamonaviy, energiya tejamkor va avtomatlashtirilgan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi zavodlar barpo etildi. Shuningdek, eski pechlar yangi, ekologik xavfsiz va energiyani tejavchi uskunalar bilan almashtirildi [4]. Yangi texnologiyalar asosida yirik kombinatsiyalashgan ishlab chiqarish liniyalari yo'lga qo'yildi. Qurilish materiallari korxonalari faoliyati, asosan, davlat tomonidan sarmoya jalb qilinadigan maxsus sanoat zonalarida tashkil etilmoqda [43].

Xitoy korxonalari ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt (AI) va IoT asosida avtomatlashtirish, shuningdek, mahsulot sifatini real vaqt rejimida nazorat qilish tizimlarini keng joriy qilmoqda [46]. Jumladan, sement zavodlarida AI yordamida yoqilg'i sarfini avtomatik boshqarish, dronlar orqali xomashyo maydonlarini kuzatish va modellashtirish, mahsulot harakatini blokcheyn orqali nazorat qilish amaliyoti keng tatbiq etilmoqda [40]. Shu bilan birga, Xitoyda qurilish materiallarini ishlab chiqarishda 3D bosib chiqarish texnologiyalari ham keng qo'llanmoqda [13].

Xitoy hukumati og'ir sanoatni ekologik me'yorlarga moslashtirish uchun bosim va rag'bat choralarini birgalikda qo'llamoqda. Issiqxona gazlarini kamaytirish maqsadida uglerod oksidini ushlab qolish texnologiyalarining joriy qilinishi [17], qurilish chiqindilarini qayta ishlovchi korxonalarni rivojlantirish va "Green Factory" (Yashil zavod) sertifikatlash tizimini yo'lga qo'yish — eng muhim yo'nalishlar sifatida ko'rilmoqda [10].

Bugungi kunda Xitoyning CNBM kompaniyasi yiliga 530 million tonna sement ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, jahon miqyosida birinchi o'rinda turadi. Ikkinchi o'rinda esa Anhui Conch kompaniyasi joylashgan bo'lib, uning yillik ishlab chiqarish hajmi 400 million tonnani tashkil etadi [16]. Shuningdek, bitta ishlab chiqarish liniyasida bir vaqtning o'zida uch xil o'lchamdagi blok yoki to'rt xil turdagi g'isht quyish imkonini beruvchi texnologiyalar joriy etilgan [12]. Bunday ko'p funksiyali ishlab chiqarish liniyalari bozor talabiga mos holda mahsulot turini tez o'zgartirish, zaxiralarni haddan tashqari ko'paytirmaslik va ombor xarajatlarini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlamoqda.

Xitoy tajribasidan Jizzax viloyati qurilish materiallari sanoati korxonalari faoliyatida foydalanish o'ta dolzarb hisoblanadi. Jumladan, sement, g'isht, gipsokarton ishlab chiqaruvchi korxonalarda energiya va resurs tejamkorligini ta'minlash, qurilish chiqindilarini qayta ishlash, raqamli monitoring va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini joriy etish — iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Ushbu mamlakat tajribasidan Jizzax viloyatida foydalanish imkoniyatlari 3-jadval orqali ifodalanishi mumkin.

3-jadval. Jizzax viloyatida qurilish materiallari korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirishda Xitoy tajribasidan foydalanish imkoniyatlari³.

Yo'nalish	Mexanizmlar	Imkoniyatlar
Modernizatsiya	Eski zavodlarni yangilash, yangi liniyalarni ishga tushirish	Kichik zavodlarni bosqichma-bosqich yangilash imkoniyati
Texnologiya	Sun'iy intellekt (AI), IoT, dronlar, blokcheyn texnologiyalari	Raqamli monitoring va nazorat tizimlarini joriy etish
Ekologiya	"Green Factory" tizimi, chiqindilarni qayta ishlash	Chiqindilardan yangi materiallar tayyorlash, tozalovchi filtrlar joriy etish
Davlat roli	Strategik rag'batlar, grantlar, soliq va kredit imtiyozlari	Hududiy soliq va moliyaviy yengilliklar asosida sanoatni qo'llab-quvvatlash
Yirik ko'lamda ishlab chiqarish	Katta ishlab chiqarish quvvatiga ega zavodlar	Tannarxning pasayishi, raqobatbardoshlikning oshishi
	Xomashyo bazasiga yaqin joylashuv	Transport xarajatlarining qisqarishi
	Ko'p funksiyali ishlab chiqarish liniyalari	Moslashuvchanlik, ortiqcha zaxiralarning oldini olish

Turkiya qurilish materiallari sanoatining yana bir xususiyati — taraqqiy etgan mamlakatlardagi kabi 4-sanoat inqilobi texnologiyalarining samarali joriy etilishi bilan bog'liq. Turkiyaning qurilish materiallari sanoati korxonalari ishlab chiqarish jarayonlariga raqamlashtirish, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etib bormoqda [44]. Jumladan, sement zavodlarida xarajatlar raqamli monitoring tizimlari orqali nazorat qilinmoqda [11]. Keramika sanoatida esa 3D bosma texnologiyasi va kompyuterlashtirilgan raqamli boshqaruv (CNC) dastgohlari qo'llanilmoqda [29]. Albatta, bu ishlab chiqarish jarayonlarining ishonchligini va aniqliligini oshirish, nosozliklarni tez aniqlab, ta'mirlash xarajatlarini kamaytirish, hamda mehnat unumdorligini yuksaltirish imkonini bermoqda.

3 Tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.



Turkiya so'nggi o'n yilliklarda qurilish sohasida jadal rivojlanishga erishdi va bunga mutanosib ravishda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati ham keskin o'sdi. Turkiya 2023-yilda sement eksporti hajmi (1,65 mlrd. AQSh dollari) bo'yicha dunyoning eng yetakchi mamlakati bo'ldi [27]. Bunday ijobiy tendensiyalarga bir qator omillar ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, Turkiyada sement, g'isht, marmar, keramika kabi qurilish materiallarining asosiy qismi mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqariladi [2]. Bu esa o'z navbatida xomashyo importiga bog'liqlikni kamaytirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga va shu orqali tarmoqda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Turkiyada ekologik me'yorlarga javob beradigan issiqlikdan qayta foydalanish tizimlari, gibrid (quyosh + gaz) energiya manbalaridan foydalanish texnologiyalari, chiqindi gazlar va boshqa chiqindilarni qayta ishlash mashinalari kabi energiya tejamkor uskunalar keng joriy etilmoqda [15]. Ushbu texnologiyalar qurilish materiallari sanoati korxonalarida energiya sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishning atrof-muhitga salbiy ta'sirini cheklash va ekologik sertifikatlar olish orqali eksport raqobatbardoshligini oshirish asosida iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Shu sababli, mamlakatda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishda eksportga yo'naltirilgan strategiyani amalga oshirishga ustuvorlik berilmoqda. Qurilish materiallari mahsulotlari ISO kabi xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqariladi, mahsulotlar dizayni va sifatiga alohida e'tibor qaratiladi [5]. Eksportga yo'naltirilgan bunday sanoat siyosati qurilish materiallari tarmog'ida yuqori daromadli bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratadi, yirik hajmda ishlab chiqarishni kengaytiradi va tannarxni pasaytiradi.

Turkiyada qurilish materiallari sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznes subyektlari davlat tomonidan subsidiya, soliq imtiyozlari va texnologik modernizatsiya grantlari bilan qo'llab-quvvatlanadi [39]. Bu esa kichik korxonalar tomonidan innovatsion texnologiyalarning o'zlashtirilishiga, mahalliy raqobatning kuchayishiga, sifatli va arzon mahsulotlar ishlab chiqarilishiga zamin yaratadi.

Turkiyada qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirishda mintaqaviy markazlashuv alohida ahamiyatga ega. Bu borada hududiy ishlab chiqarish klasterlari tashkil etilib, ular yordamida xomashyo va tayyor mahsulotlar logistikasi optimallashtiriladi [34]. Turkiyada marmar, keramika, sement va boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari ma'lum hududiy klasterlarda jamlangan. Jumladan, Denizli va Bilecik — keramika va marmar klasterlari [3], Izmir va Afyon — tabiiy tosh va granit klasterlari [37], Adana va Gaziantep — sement va qurilish materiallari ishlab chiqarish markazlari [1], Konya va Kayseri — yog'och va mebel sanoati bilan bog'liq qurilish materiallari klasterlari [33] bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Quyidagi 4-jadvalda AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Turkiyaning qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilayotgan asosiy yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu tahlil asosida har bir mamlakatning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ustuvor strategiyalari va ilg'or texnologiyalari tahlil qilinadi.

4-jadval. Qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasining qiyosiy tahlili⁴

Asosiy yondashuv	Mamlakatlar	Xususiyatlari
Avtomatlashtirish va innovatsion texnologiyalar	AQSh, Janubiy Koreya, Xitoy	– 3D bosib chiqarish, IoT sensorlari, sun'iy intellekt; – Robot texnologiyalaridan foydalanish; – Katta ko'lamda ishlab chiqarish tizimining yo'lga qo'yilishi.
Ekologik toza ishlab chiqarish va energiya samaradorligi	Germaniya, Turkiya, Yaponiya	– Qayta ishlangan xomashyolardan foydalanish; – Uglerod neytralligini ta'minlashga qaratilgan yondashuv; – Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish.
Sifat menejmenti va samaradorlikni oshirish	Yaponiya, Janubiy Koreya	– Kaizen tizimining amaliyoti; – Total Quality Management (TQM) yondashuvi; – Xodimlarni doimiy ravishda malakasini oshirish tizimi.
Hududiy markazlashuv va ishlab chiqarish klasterlari	Turkiya, Xitoy	– Sanoat zonalarini yaratish orqali mahsulot va xizmatlarni jamlash; – Mahalliy xomashyolardan maksimal darajada foydalanish; – Transport va logistika xarajatlarini optimallashtirish.
Eksport va global raqobatbardoshlik	Xitoy, AQSh, Janubiy Koreya, Turkiya	– Arzon tannarxli, massiv ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish; – Innovatsion mahsulotlarni eksportga yo'naltirish; – Milliy brend yaratish strategiyalarini amalga oshirish.

4 Tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.



Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, turli davlatlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha o'ziga xos strategiyalarni ishlab chiqqan. Masalan, AQSh va Janubiy Koreya avtomatlashtirish hamda raqamli texnologiyalarga e'tibor qaratib, ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirishga erishgan. Germaniya va Yaponiya esa ekologik barqarorlik hamda sifat menejmenti orqali resurslardan samarali foydalanish va mahsulot sifatini oshirishni ta'minlagan. Xitoy va Turkiya esa hududiy markazlashuv va eksport strategiyalari orqali ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga alohida e'tibor qaratgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bunday markazlashuv xomashyo manbalariga yaqin joylashish, transport xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, mahalliy va xalqaro bozorlarga tez fursatlarda yetkazib berish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi, chunki bu holatda logistika xarajatlari qisqaradi, ishlab chiqarish va tayyor mahsulot bir hududda jamlanadi, korxonalar o'rtasida kooperatsiya kuchayadi, eksport imkoniyatlari kengayadi, ayniqsa Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyo bozorlariga geografik yaqinlikdan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi, shu bilan birga innovatsiyalarni tezroq joriy etish, klaster ichida texnologik almashinuvni kuchaytirish orqali ishlab chiqarish tizimi yangilanadi. Turkiya tajribasidan Jizzax viloyatida qurilish materiallari sanoati korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirishda foydalanish imkoniyatlari yuqori bo'lib, bular jumlasiga Zomin, Baxmal va Forish hududlaridagi mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali mahalliy xomashyoni ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish, Jizzax Erkin Iqtisodiy Zonasi doirasida yirik zavodlarda raqamlashtirish va avtomatlashtirish texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish, quyosh panellari, chiqindilarni qayta ishlash uskunalari va energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni tatbiq etish, kichik va o'rta biznes subyektlariga subsidiya, grant va imtiyozlar ajratish orqali ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ayniqsa g'isht, plitka va boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratish, shuningdek, Jizzax viloyatida ishlab chiqarilayotgan qurilish mahsulotlarini Tojikiston, Qozog'iston, Afg'oniston kabi qo'shni mamlakatlar bozorlariga yo'naltirish orqali eksport salohiyatini kengaytirish, hududiy markazlashuv orqali esa qurilish materiallari ishlab chiqarish, xomashyo qazib olish, qayta ishlash va logistika tizimlarini yagona klaster doirasida jamlash orqali tannarxni pasaytirish, mahsulot sifati va ishlab chiqarish hajmini oshirishga erishish mumkin. Bu tajribalar Jizzax viloyatida qurilish materiallari sanoatini kompleks tarzda rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik me'yorlarga mos texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, xalqaro standartlarga mos sifat menejmentini shakllantirish orqali sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alkan, Adnan & Obut Bilim, Zehra. (2021). Lokasyon Katsayısı Yaklaşımı İle Türkiye Çimento Sanayiinde Bölgesel Yoğunlaşma. Bitlis Eren Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi. 10. 10.47130/bitlissos.952311.
2. Aras, aydın & Albayrak, Mustafa & Arıkan, M. & Sobolev, Konstantin. (2007). Evaluation of selected kaolins as raw materials for the Turkish cement and concrete industry. Clay Minerals - CLAY MINER. 42. 233-244. 10.1180/claymin.2007.042.2.08.
3. Barış Semiz, Characteristics of clay-rich raw materials for ceramic applications in Denizli region (Western Anatolia), Applied Clay Science, Volume 137, 2017, Pages 83-93.
4. Beraud JD, Xicang Z, Jiying W. Revitalization of Chinese's manufacturing industry under the carbon neutral goal. Environ Sci Pollut Res Int. 2022 Sep;29(44):66462-66478. doi: 10.1007/s11356-022-20530-5.
5. Beşiroğlu, Şafak & Serteser, Nuri. (2024). Yapi elemanları için yangına dayanım performanslarının uluslararası standartlara göre test prosedürlerinin incelenmesi.
6. Çelik, M.Y. Characterization of İskehisar Andesite (Afyonkarahisar-Turkey), Used as a Building Stone Source of Historical Heritages from Ancient Times to the Present. Geoheritage 16, 71 (2024).
7. CEMBUREAU. The European Cement Association (2023). Activity Report 2023. – Ps. 50. 15-p. <https://cembureau.eu/media/dnbf4xzc/activity-report-2023-for-web.pdf>.
8. Chiarini, Andrea. «Japanese total quality control, TQM, Deming's system of profound knowledge, BPR, Lean and Six Sigma: Comparison and discussion.» International journal of lean six sigma 2.4 (2011): 332-355.
9. China to Close 2,000 Factories In Drive to Improve Energy Efficiency. Yale School of the Environment. Source: https://e360.yale.edu/digest/china-to-close-2000-factories-in-drive-to-improve-energy-efficiency?utm_source=chatgpt.com.
10. China's Green Building Materials Sector: Policies and Investment Opportunities. China Briefing from Dezan Shira & Associates. Source: <https://www.china-briefing.com/news/chinas-green-building-materials-sector-policies-and-investment-opportunities/>.
11. Çimento Şirketlerinin Üretim Süreçlerinde Dijital Dönüşüm. Çimento Fabrikası. Source: <https://cimentofabrikasi.com/icerik/cimento-sirketlerinin-uretim-sureclerinde-dijital-donusum>.
12. Du, F., Zhao, M., & Zhang, P. (2022, April). The study on flexible manufacturing system in building decoration stone processing. In IOP Conference Series: Materials Science and Engineering (Vol. 1242, No. 1, p. 012015). IOP Publishing.
13. Han, Y., Yang, Z., Ding, T., & Xiao, J. (2021). Environmental and economic assessment on 3D printed buildings with recycled concrete. Journal of Cleaner Production, 278, 123884.



14. Hashimoto, Seiji, Hiroki Tanikawa, and Yuichi Moriguchi. «Where will large amounts of materials accumulated within the economy go? – A material flow analysis of construction minerals for Japan.» *Waste management* 27.12 (2007): 1725-1738.
15. Hedman, Bruce. (2019). *Waste Heat Recovery in Turkish Cement Industry. Review of Existing Installations and Assessment of Remaining Potential*. 10.13140/RG.2.2.19396.48006.
16. Installed capacity of selected top cement producers worldwide in 2025 (in million metric tons per year). <https://www.statista.com/statistics/297845/cement-producers-capacity/>
17. J.L. Fan, M. Xu, L. Yang, X. Zhang, F. Li, How can carbon capture utilization and storage be incentivized in China? A perspective based on the 45Q tax credit provisions, *Energy Policy* 132 (2019) 1229–1240, <https://doi.org/10.1016/j.enpol.2019.07.010>.
18. Jeschke, S., Brecher, C., Meisen, T., Özdemir, D., & Eschert, T. (2017). *Industrial internet of things and cyber manufacturing systems* // Springer International Publishing, 2017. pp. 3-19.
19. Kharit, Oleg. (2023). Strategy for introducing new technologies in construction: how to ensure business competitiveness. *Green, Blue and Digital Economy Journal*. 4. 58-64. 10.30525/2661-5169/2023-3-9.
20. Kim, K., Lee, G., & Kim, S. (2020). A study on the application of blockchain technology in the construction industry. *KSCE journal of civil engineering*, 24(9), 2561-2571.
21. Klingenberg, Katrin. «Passive House (Passivhaus).» *Sustainable Built Environments* (2020): 327-349.
22. Lee, S. Y., Lee, Y. S., Park, B. S., Lee, S. H., & Han, C. S. (2007). MFR (Multipurpose Field Robot) for installing construction materials. *Autonomous Robots*, 22, 265-280.
23. Liu, K. S., & Lin, M. H. (2021). Performance assessment on the application of artificial intelligence to sustainable supply chain management in the construction material industry. *Sustainability*, 13(22), 12767.
24. Mishra, R. K., & Agarwal, R. (2024). Artificial Intelligence in Material Science: Revolutionizing Construction. *Research and Reviews in Material Science*, 1, 69-99.
25. Mostert C., Weber C., Bringezu S. Modelling and simulation of building material flows: Assessing the potential for concrete recycling in the German construction sector // *Recycling*. – 2022. – T. 7. – №. 2. – Ps. 13.
26. Odagiri H., Gotō A. *Technology and industrial development in Japan: Building capabilities by learning, innovation, and public policy*. – Oxford University Press, 1996.
27. OEC. Cement. <https://oec.world/en/profile/hs/cement>
28. Ouda, A. S. (2015). Development of high-performance heavy density concrete using different aggregates for gamma-ray shielding. *HBRC journal*, 11(3), 328-338.
29. ÖZGÜVEN, Sanver. (2019). Seramik Yüzeylerde Dijital Baskı Uygulamaları. *Anadolu Üniversitesi Sanat & Tasarım Dergisi*. 9. 72-83. 10.20488/sanattasarim.600038.
30. Park, S. (2016). Development of innovative strategies for the Korean manufacturing industry by use of the Connected Smart Factory (CSF). *Procedia Computer Science*, 91, 744-750.
31. Recycling Rates by Country 2025. *World Population Review*. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/recycling-rates-by-country>.
32. Rushing, et al. Investigation of concrete mixtures for additive construction. *3D Concrete Printing Technology*, Elsevier (2019), pp. 137-160
33. Sarıkaya, E., & Köroğlu, A. (2021). Sektörel Bakış: Mobilya sektöründe kooperatifleşme üzerine bir değerlendirme: Kayseri’de küçük sanayi sitesi örneği. *Erciyes Akademi*, 35(3), 937-955
34. Sedef Akgüngör, Yeşim Kuştepel, Yaprak Gülcan. An overview on industry clusters and the impact of related variety on regional performance in Turkey. *European Review of Industrial Economics and Policy*, 2012, 5.
35. Sohn, D. W., & Kenney, M. (2007). Universities, clusters, and innovation systems: The case of Seoul, Korea. *World Development*, 35(6), 991-1004.
36. Sugimoto S.. «Kaizen in practice.» *Applying the Kaizen in Africa: A new avenue for industrial development* (2018): 69-110.
37. Taşlıgil, nuran & şahin, güven. (2016). Yapi malzemesi olarak kullanılan türkiye doğal taşlarının iktisadi coğrafya odağında analizi. *Marmara Coğrafya Dergisi*. 607. 10.14781/mcd.95032.
38. The construction materials industry worldwide - statistics & facts. <https://www.statista.com/topics/11787/the-construction-materials-industry-worldwide/#topicOverview>.
39. The Presidency of Republic of Türkiye Investment Office. Guide to State Incentives for Investments in Türkiye. February, 2025. Source: <https://www.invest.gov.tr/en/library/publications/lists/investpublications/guide-to-state-incentives-for-investments-in-turkiye.pdf>.
40. Tong, R., Sui, T., Feng, L., & Lin, L. (2023). The digitization work of cement plant in China. *Cement and Concrete Research*, 173, 107266.
41. U.S. Green Building Materials Market Size, Share & COVID-19 Impact Analysis, By Application (Roofing, Flooring, Insulation, and Others), End-use Industry (Residential and Non- Residential), and Country Forecast, 2023-2030. Source: <https://www.fortunebusinessinsights.com/u-s-green-building-materials-market-109063>
42. Which Country Produces the Most Construction Materials: Global Insights. <https://www.buildingradar.com/construction-blog/which-country-produces-the-most-construction-materials-global-insights>.
43. Y. Lyu et al. Review of green development of Chinese industrial parks. // *Energy Strategy Reviews* 42 (2022), 100867, <https://doi.org/10.1016/j.esr.2022.100867>.
44. Yildirim, Orcun & Kardas, Geylani. (2014). A multi-agent system for minimizing energy costs in cement production. *Computers in Industry*. 65. 1076-1084. 10.1016/j.compind.2014.05.002.



45. Yüksek İ. «The evaluation of building materials in terms of energy efficiency.» Periodica Polytechnica Civil Engineering 59.1 (2015): 45-58.
46. Zhang, N., Yin, J., Zhang, N., Sun, T., Yin, S., & Wan, L. (2024). Artificial intelligence-driven photovoltaic building materials industry: Greenization and digitization innovation conversion of photovoltaic technology based on a novel interval fuzzy field theory decision-making model. Journal of Intelligent & Fuzzy Systems, 46(3), 6411-6437.
47. Интернет вещей на производственном рынке, анализ размера и доли – тенденции роста и прогнозы (2024–2029 гг.) Source: <https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/internet-of-things-in-manufacturing-market>.
48. Райли И., Бербидж М., Ванг Р. Мировая цементная промышленность и технология: прошлое, настоящее и будущее. Source: <https://jcement.ru/reading/cemchem/mirovaya-tsementnaya-promyshlennost-i-tehnologiya-proshloe-nastoyashchee-i-budushchee/>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
